



Asosiy tarkib



Dastlabki ma'lumotlar

2022- yilning yanvar-fevral oylarida chakana savdo tovar aylanmasi **1604,4** mlrd so'mni tashkil etib, 2021- yil yanvar-fevral oylariga nisbatan **26,0 %** ga oshdi. Shu jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi **407,3** mlrd so'mni (**2,8** martaga oshdi), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi **1197,1** mlrd so'mni (**5,9 %** ga oshdi), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi **243,2** mlrd so'mni (**9,9 %** ga oshdi) tashkil etdi.


Tarkibiy qism, ulushlarda



O'sish (o'zgarish) sur'atlari, foizda



Uyushmagan savdo, mlrd so'm






UMUMIY MA'LUMOT

2022- yilning yanvar-fevral oylarida chakana savdo tovar aylanmasi **1 604,4** mlrd so‘mni tashkil etib, 2021- yil yanvar-fevral oylariga nisbatan **126,0** % ni tashkil etdi.

Chakana savdo tovar aylanmasida barcha shahar va tumanlarda o‘shish sur‘ati kuzatildi. Chakana savdo tovar aylanmasining tarkibiy qismlarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga **74,6** % va yirik korxonalar hissasiga **25,4** % to‘g‘ri keldi.





ENG YUQORI ULUSH

Chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori ulush Urganch shahrida **45,2** % ulush bilan **725,6** mlrd so‘mni tashkil etdi.

ENG QUIYI ULUSH

Chakana savdo tovar aylanmasida eng quyi ulush Tuproqqal'a tumanida **1,2** % ulush bilan **19,4** mlrd so‘mni tashkil etdi.

**YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY
TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING CHAKANA
SAVDO TOVAR AYLANMASIDAGI ULUSHI, foizda**



Chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori hajm kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlariga to'g'ri keldi. Mazkur hajm 2022- yil yanvar-fevral oylari yakuniga ko'ra, **1 197,1** mlrd so'mni tashkil etib, 2021- yil yanvar-fevral oylariga nisbatan **5,9 %** ga o'sgan. Jami chakana savdo tovar aylanamasidagi ulushi esa **74,6 %** ni tashkil etdi.


Bu ko'rsatkich hududlar kesimida taqqoslanganda, Tuproqqal'a (99,8 %), Yangiariq (99,1 %), Gurlan (98,8 %) va Bog'ot (98,7 %) tumanlarida yuqori bo'lgan.





2021- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan chakana savdo tovar aylanmasida barcha hududlarda o‘shish sur‘atlari kuzatildi. Nisbatan yuqori o‘shish sur‘atlari Urganch shahrida – 159,2 %, Gurlan tumanida– 117,7 %, Bog‘ot tumanida – 115,3 % ni tashkil qildi.



Chakana savdo aylanmasining o‘shish sur‘atlari, foizda



	Jami, mln so‘m	2021- yil yanvar-fevral oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar, mln so‘m	2021- yil yanvar-fevral oylariga nisbatan, foizda	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, mln so‘m	2021- yil yanvar-fevral oylariga nisbatan, foizda
Xorazm viloyati	1 604 393,1	126,0	407 283,7	2,8 m.	1 197 109,4	105,9
<i>shaharlar:</i>						
Urganch	725 622,5	159,2	372 558,5	3,3 m.	353 064,0	103,2
Xiva	53 798,5	105,2	4 344,4	107,0	49 454,1	105,0
<i>tumanlar:</i>						
Bog‘ot	71 070,6	115,3	946,4	114,3	70 124,1	115,3
Gurlan	126 215,4	117,7	1 454,1	79,7	124 761,3	118,3
Qo‘shko‘pir	46 741,1	104,3	3 086,1	77,7	43 654,9	106,9
Urganch	126 777,9	104,8	5 969,8	133,2	120 808,1	103,7
Hazorasp	146 603,0	109,9	8 656,9	2,3 m.	137 946,1	106,4
Tuproqqal‘a	19 442,0	100,8	42,6	64,5	19 399,4	100,9
Xonqa	68 826,3	103,2	4 343,4	96,6	64 482,9	103,7
Xiva	35 026,4	103,5	792,3	91,1	34 234,1	103,8
Shovot	89 907,9	103,5	2 570,6	82,1	87 337,3	104,3
Yangiariq	59 004,7	101,1	560,5	36,3	58 444,2	102,9
Yangibozor	35 356,8	106,5	1 958,0	4,6 m.	33 398,7	101,9



Yirik korxonalar

Eng yuqori ulushga
ega hududlar, foizda



Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari

Eng yuqori ulushga
ega hududlar, foizda




Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining tovar aylanmasi hajmi, 2021- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan **2,8** martaga oshdi va **407,3** mlrd so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining **25,4 %** ulushiga to'g'ri keladi.




Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko'ra, **1 197,1** mlrd so'mni tashkil etib, 2021- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan **5,9 %** ga o'sdi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi **74,6 %** ni tashkil etdi.



**CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK
BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING
HUDUDLAR KESIMIDA ULUSHI (foizda)**



Tahliliy natijalarga ko'ra, chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha Tuproqqal'a (99,8 %), Yangiariq (99,1 %) va Gurlan (98,2 %) tumanlari yetakchilik qilmoqda. Chakana tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi 25,8 % ni tashkil etib, eng katta ulush Urganch shahrida (51,3 %), Xiva shahrida (8,1 %) va Qo'shko'pir tumanida (6,6 %) kuzatildi.





**XORAZM VILOYATI
STATISTIKA BOSHQARMASI**

2022- yil yanvar-fevral oylari holatiga ko'ra, o'rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi **840,6** ming so'mni (2021- yil yanvar-fevral oylariga nisbatan **24,1** % ga oshdi) tashkil qildi. Yuqori o'sish sur'ati Urganch shahar (157,5%), Gurlan (116,0 %), Bog'ot (113,4 %), Hazorasp (108,6 %) va Yangibozor (105,1 %) tumanlarida qayd etildi.

Ushbu ko'rsatkichlar hududlar kesimida solishtirilganda, aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasida yuqori hajmlar Urganch shahri (4 976,8 ming so'm), Gurlan (837,5 ming so'm) va Hazorasp (741,2 ming so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.


**XORAZM VILOYATI BO'YICHA AHOLI JON BOSHIGA
NISBATAN CHAKANA SAVDO TOVAR
AYLANMASI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI**



**XORAZM VILOYATI
ULGURJI VA CHAKANA
SAVDO TOVAR AYLANMASI
2022- yil yanvar-fevral**

	Hajm, ming so'm	2021- yil yanvar-fevral oylariga nisbatan, foizda
Xorazm viloyati	840,6	124,1
<i>shaharlar:</i>		
Urganch	4976,8	157,5
Xiva	570,5	103,5
<i>tumanlar:</i>		
Bog'ot	423,0	113,4
Gurlan	837,5	116,0
Qo'shko'pir	267,2	103,0
Urganch	623,3	102,7
Hazorasp	741,2	108,6
Tuproqqal'a	350,3	98,0
Xonqa	362,2	101,5
Xiva	235,7	101,8
Shovot	519,7	102,0
Yangiariq	500,0	99,7
Yangibozor	398,6	105,1

Asosiy tarkib, foizda




Dehqon bozorlari




Chorva (parranda) bozorlari


O'sish (o'zgarish) sur'atlari, foizda



Savdo aylanmasi hajmi va ulushi



Eng yuqori ulushga ega hududlar



2022- yilning yanvar-fevral oylarida uyushmagan savdo tovar aylanmasi **243,2** mlrd so'mni tashkil etib, 2021- yil yanvar-fevral oylariga nisbatan **9,9 %** ga o'sdi. Shu jumladan, 12-bozor va 12-bozor (chorva) (oylik) kuzatuvlari ma'lumotlariga asosan dehqon bozorlarida savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning uy xo'jaliklarida yetishtirgan mahsulotlarini sotish hajmi **112,7** mlrd so'mni (o'zgarish sur'ati 94,0 %), chorva mollari va parrandalar sotuvchi jismoniy shaxslarning savdo aylanmasi hajmi **130,5** mlrd so'mni (o'zgarish sur'ati 128,6 %) tashkil etdi.

2022- yilning yanvar-fevral oylarida dehqon va chorva (parranda) bozorlarida uy xo'jaligida yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari, parrandalar va chorva mollari savdosi bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuvini o'tkazildi. Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilgan savdo aylanmasi hajmi dehqon bozorlarida 112,7 mlrd so'mni, chorva (parranda) bozorlarida 130,5 mlrd. so'mni tashkil etdi.



* Xo'jalik yurituvchi subyektlar va yakka tartibdagi tadbirkorlar (YTT)ni qo'shmagan holatda

* Jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari, chorva (parranda) mollari

	Jami, mlrd so'm	2021- yil yanvar-fevral oylariga nisbatan, foizda	Dehqon bozorlari, mlrd so'm	2021- yil yanvar-fevral oylariga nisbatan, foizda	Chorva (parranda) bozorlari, mlrd so'm	2021- yil yanvar-fevral oylariga nisbatan, foizda
Xorazm viloyati	243,2	109,9	112,7	94,0	130,5	128,6
<i>shaharlar:</i>						
Urganch	56,1	108,2	41,3	104,6	14,8	119,8
Xiva	5,1	86,8	5,1	88,1	0,0	0,0
<i>tumanlar:</i>						
Bog'ot	38,8	127,0	6,9	111,0	31,8	131,1
Gurlan	32,2	138,2	7,1	98,4	25,1	156,2
Qo'shko'pir	15,0	110,3	9,0	96,3	6,0	140,6
Urganch	-	-	-	-	-	-
Hazorasp	30,9	124,4	15,9	117,5	15,0	132,7
Tuproqqal'a	1,9	53,5	1,1	36,8	0,8	132,1
Xonqa	14,5	77,0	10,2	69,8	4,3	102,2
Xiva	-	-	-	-	-	-
Shovot	33,1	99,1	7,3	70,9	25,8	111,7
Yangiariq	7,8	104,3	4,3	88,4	3,6	132,7
Yangibozor	7,9	95,8	4,5	80,0	3,4	130,4

**UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI:
DEHQON BOZORLARI**



2,2
mlrd so'm

Tuzlamalar



50,2
mlrd so'm

**Yangi uzilgan qishloq
xo'jaligi mahsulotlari**



10,0
mlrd so'm

**Qurtilgan qishloq
xo'jaligi mahsulotlari
(yong'oq, bodom, pista va
boshqalarni qo'shgan holda)**

17,3
mlrd so'm



**Non va non
mahsulotlari**



2,6
mlrd so'm

**Sut va sut
mahsulotlari**

2,6
mlrd so'm



Tuxum

16,1
mlrd so'm



**Don mahsulotlari (mosh,
loviya, no'xat, guruch va
boshqalar)**

3,4
mlrd so'm



**Chorva mollari va
parrandalar uchun har xil
yem-hashaklar**

2022- yilning yanvar-fevral oylarida viloyatning (Urganch va Xiva tumanlaridan tashqari) **11** ta hududlarida joylashgan dehqon bozorlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuv natijalariga ko'ra, savdo aylanmasi hajmi **112,7** mlrd so'mni tashkil etdi. Bunda asosiy yirik hajm yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosiga (**50,2** mlrd so'm) to'g'ri keldi.

2,5
mlrd so'm



Ziravorlar

5,2
mlrd so'm



Tovuq go'shti

0,6
mlrd so'm



**Gullar, o'simlik va nihol
ko'chatlari (manzarali va
qishloq xo'jaligi)**


2022- yilning yanvar-fevral oylarida viloyatning 11 ta (Urganch va Xiva tumanlaridan tashqari) hududlarida joylashgan chorva (parranda) bozorlarida parrandalar va chorva mollari sotuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuvini o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra, savdo aylanmasi hajmi **130,5** mlrd so'mni tashkil etdi. Bunda har xil yoshdagi qora mollar savdosi **119,3** mlrd so'mni, qo'y va echkilar savdosi **10,1** mlrd so'mni, parrandalar savdosi **1,1** mlrd so'mni tashkil etdi. Savdo aylanmasining to'liq tarkibi quyidagi ko'rsatkichda o'z aksini topgan:





2022- yilning yanvar-fevral oylarida chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish tashkilotlarining savdo aylanmasi **1,4 %** ni tashkil etib, **22,2 mlrd so‘mga** yetdi va 2021- yil yanvar-fevral oylariga nisbatan **3,6 %** ga oshdi. Bunda jami savdo aylanmasining **100,0 %** ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.

Umumiy ovqatlanish korxonalarini savdo aylanmasining o‘shish sur‘atlari, foizda



	Jami, mln so‘m	2021- yil yanvar-fevral oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar, mln so‘m	2021- yil yanvar-fevral oylariga nisbatan, foizda	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, mln so‘m	2021- yil yanvar-fevral oylariga nisbatan, foizda
Xorazm viloyati	22 219,7	103,6	-	-	22 219,7	103,6
<i>shaharlar:</i>						
Urganch	8 965,5	101,4	-	-	8 965,5	101,4
Xiva	576,5	108,6	-	-	576,5	108,6
<i>tumanlar:</i>						
Bog‘ot	905,5	108,0	-	-	905,5	108,0
Gurlan	608,2	107,9	-	-	608,2	107,9
Qo‘shko‘pir	396,4	110,9	-	-	396,4	110,9
Urganch	2 851,7	102,2	-	-	2 851,7	102,2
Hazorasp	1 688,0	103,6	-	-	1 688,0	103,6
Tuproqqal‘a	344,0	108,3	-	-	344,0	108,3
Xonqa	788,7	107,4	-	-	788,7	107,4
Xiva	572,8	109,6	-	-	572,8	109,6
Shovot	3 570,3	103,7	-	-	3 570,3	103,7
Yangiariq	377,0	106,6	-	-	377,0	106,6
Yangibozor	575,0	109,5	-	-	575,0	109,5

Asosiy tarkib, foizda




Yirik korxonalar




Mikrofirma va kichik korxonalar

2022- yilning yanvar-fevral oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi **352,7** mlrd so‘mni tashkil etib, 2021- yil yanvar-fevral oylariga nisbatan **6,4 %** ga oshdi. Shu jumladan, yirik korxonalarining savdo tovar aylanmasi **53,2** mlrd so‘mni (**9,9%** ga kamaydi), kichik biznes subyektlarining savdo tovar aylanmasi **299,5** mlrd so‘mni (**10,0 %** ga ko‘payish) tashkil etdi.


O‘sinh (o‘zgarish) sur‘atlari, foizda



Savdo aylanmasi hajmi va ulushi



Eng yuqori ulushga ega hududlar






Ulgurji savdo tovar aylanmasida yuqori o'sish sur'atlariga ega yirik korxonalar Bog'ot tumani (735,5 m.), Yangibozor tumani (433,6 m.) va Xiva tumani da (17,2 m.) kuzatildi.


Ulgurji tovar aylanmasida yuqori o'zgarish sur'ati Bog'ot tumani (155,3%), Urganch tumanii (111,2%) va Yangibozor tumanida (110,9%) qayd etildi.

Ulgurji savdo aylanmasi o'sish sur'atlari, foizda




	Jami, mln so'm	2021- yil yanvar-fevral oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar, mln so'm	2021- yil yanvar-fevral oylariga nisbatan, foizda	Mikrofirma va kichik korxonalar, mln so'm	2021- yil yanvar-fevral oylariga nisbatan, foizda
Xorazm viloyati	352 710,2	106,4	53 247,1	90,1	299 463,1	110,0
<i>shaharlar:</i>						
Urganch	198 814,0	104,1	27 897,8	71,0	170 916,2	112,7
Xiva	10 780,6	106,2	118,3	86,0	10 662,4	106,4
<i>tumanlar:</i>						
Bog'ot	5 516,3	155,3	1 641,1	735,5 m.	3 875,2	109,2
Gurlan	4 307,6	110,0	-	-	4 307,6	110,0
Qo'shko'pir	1 815,0	107,0	1,6	63,4	1 813,4	107,1
Urganch	74 565,2	111,2	22 585,0	121,6	51 980,1	107,2
Hazorasp	4 747,4	106,2	52,4	4,1 m.	4 695,0	105,3
Tuproqqal'a	1 300,7	109,3	1,7	28,3	1 299,0	109,7
Xonqa	17 042,4	105,1	635,5	60,1	16 406,9	108,2
Xiva	21 680,6	104,7	80,0	17,2 m.	21 600,6	104,3
Shovot	4 963,0	101,1	8,0	121,8	4 955,0	101,1
Yangiariq	2 663,6	104,4	9,5	42,1	2 654,1	105,0
Yangibozor	4 513,9	110,9	216,3	433,6 m.	4 297,6	105,6

YIRIK KORXONALAR VA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASIDAGI ULUSHI, foizda



Ulgurji savdo tovar aylanmasida eng yuqori hajm kichik biznes subyektlariga to'g'ri kelib, mazkur hajm 2022- yil yanvar-fevral oylari yakuniga ko'ra, **299,5** mlrd so'mni tashkil etgan va 2021- yil yanvar-fevral oylariga nisbatan **10,0** % ga ko'paygan. Jami ulgurji savdo tovar aylanmasidagi ulushi esa **84,9** % ni tashkil qildi.

Bu ko'rsatkich hududlar kesimida taqqoslanganda Gurlan (100,0 %) Qo'shko'pir, Tuproqqal'a (99,9 %) tumanlarida yuqori bo'lgan. Eng past ulush esa Bog'ot tumani (70,3 %) va Urganch tumaniga (69,7 %) to'g'ri keldi.



Tashqi iqtisodiy
faoliyat va savdo
statistikasi bo'limi
Tel.: (62) 224-65-16